

O`QUV YILIGA QARAB TIBBIYOT TALABALARINING EMOTSIONAL
CHARHASH SINDROMINING DINAMIKASI.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi Texnikumi

RO'ZIYEVA FERUZA BEKNAZAR QIZI

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta`lim oluvchi o`quvchilarda ymotsional charchash sindromi (ECHS) o`quv yiliga qarab qay darajada rivojlanayotganini va uning faza ko'rsatkichlari qanday o'zgarishini o`rganish maqsadida o`tkazilgan tadqiqot haqida yozildi.

Annotation. This article was written about a study aimed at studying the extent to which motional fatigue syndrome (ECHS) is developing in professionally trained students depending on the academic year and how its phase indicators change.

Kalit so`zlar: o`quvchi, emotsional charchash, psixologiya, hissiyot.

Keywords: reader, emotional exhaustion, psychology, emotion.

Kirish. Emotsional charchash sindromi (ECHS) – bu odam o‘zini charchagan, yo‘qolgan va umidsiz his qiladigan holatdir. Tibbiyot har doim o‘z vakillarining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga alohida talablar qo‘yadigan kasb hisoblangan. Tibbiyot hodimlari boshqalarning sog‘lig‘i uchun javobgarlik yuki yuqori bo`lganligi sabab kuchli hissiy ta’sirga duchor bo’ladilar va emotsional charchash sindromini rivojlanish xavfi yuqori bo`ladi. Agar avvallari tibbiyotda kasbiy charchash bu sohada ish staji oshgani sayin paydo bo`ladi deb hisoblangan bo`lsa, hozirda bu holat endigina ish faoliyatini boshlayotgan tibbiyot talabalarida rivojlanish tendensiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu holatning sababi notekis ish va o`quv yuki, o`quvchilarning kasbiy darajasiga haddan tashqari (va asossiz) yuqori talablar, vaziyatning beqarorligi, oldindan aytib bo`lmaydiganligilardir.



Tadqiqotning maqsadi. Tibbiyot texnikumi talabalarida ECHS o'quv yiliga qarab qay darajada rivojlanayotganini va uning faza ko'rsatkichlari qanday o'zgarishini o'rGANISH.

MATERIALLAR VA USULLAR. Tadqiqot aprel oyida texnikum talabalari o'rtasida o'tkazildi. Talabalarning charchash darajasini aniqlash uchun 1, 2 va 3 kurs o'quvchilari anonim so'rovda ixtiyoriy ishtirok etishga taklif e'lon qilindi. Tadqiqot uchun biz V. V. Boykoning hissiy charchash darajasini tashxislash metodologiyasini tanladik va qo'shimcha ravishda grafa joylashtirdik, unda o'quvchi, o'z hohishiga ko'ra, muammolarini nima bilan bog'lashini ko'rsatishi mumkin edi.

NATIJALAR. Ushbu tadqiqotda anonim so'rovda 154 nafar o'quvchi ishtirok etdi, ulardan 1-kurs o'quvchilari 75 kishi (44%), 2 – kurs 42 kishi (26%), 3- kurs 46 kishi (30%). Ishtirokchilarning so'rovnomalari yordamida charchash darajasini tahlil qilib biz quyidagi natijalarga erishdik. "Zo`riqish" bosqichi 1-kurs o'quvchilarining 2 foizida, 2-kurs o'quvchilarining 18 foizida va 3-kurs talabalarining 16% aniqlandi; shakllanish fazasi bosqichlarda 29%, 19% va 75% aniqlandi; shakllanmagan faza 69% birinchi kurs o'quvchilarida, 66% 2-kurs o'quvchilarida va 9% bitiruvchilarda aniqlandi. Birinchi kurs o'quvchilarining 52% da "qarshilik" bosqichi shakllanmagan, 37% 2-kurs talabalarida va 3-kurs talabalarining 3% da; "Charchoq" bosqichi so'rovda ishtirok etgan birinchi kurs talabalarining 73 foizida, 2 kurs talabalarining 56 foizida va bo'lajak bitiruvchilarning 20 foizida shakllangan.

Ishtirokchilar o'zlarining hissiy holatining asosiy sabablariga quyidagilarni kiritishdi: katta o'quv yuklamalari, bo'sh vaqt kamligi (1 kurs), oiladagi hodisalar, turmushga chiqish jarayoni va tibbiyotda o'qishni tugatish haqidagi fikrlar (2-kurs), kelajakda ishga kirish, o'qishni davom ettirish, oilaviy holat (3-kurs).

XULOSA. Shunday qilib, tibbiyot texnikumi o'quvchilari orasida ECHS rivojlanish xavfi yuqori kursga o'tish bilan ortadi. Bizning fikrimizcha, ushu muammoning yechimi o'quvchilarni o'quv jarayonida qo'llab-quvvatlash, murabbiylit dasturlarini



amalga oshirish, shuningdek o'qish jarayonida psixologik maslahat va yordam ko`rsatishlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Эмоциональное выгорание — симптомы и лечение [Электронный ресурс]. URL: <https://probolezny.ru/emocionalnoe-vygoranie/> (дата обращения 14.12.22) 2.
- Синдром эмоционального выгорания специалиста: монография / Е. И. Чердыкова, Е. Л. Чернышова, В. Я. Мачнев. — Самара: Изд-во Самарского университета, 2019. — 124 с.
3. Водопьянова Н. Е. Синдром выгорания: диагностика и профилактика. 2-е изд: Питер; Спб.; 2008 ISBN 978-5-91180-891-4 86 с

